

2026-yil 8-aprel

“Ammofos-Maxam” AJda amalga oshirilgan loyihalar va istiqboldagi rejalar xususida ma’lumot berildi



Joriy yilning 8 aprel kuni «O'zkimyosanoat» AJ tomonidan «Ammofos-Maxam» aksiyadorlik jamiyati faoliyati, bugunga qadar amalga oshirilgan loyihalar va istiqboldagi rejalar haqida bag'ishlangan matbuot anjumani tashkil etildi. Tadbirda korxonada rahbariyati hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etib, ishlab chiqarish natijalari va rivojlanish strategiyasi yuzasidan atroflicha ma'lumotlarga ega bo'ldilar.



«Ammofos-Maxam» AJ Qizilqum fosforitlari asosida murakkab azot-fosforli mineral o'g'itlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yirik sanoat korxonalaridan biri bo'lib, mamlakat kimyo sanoatining yetakchi ishlab chiqaruvchilaridan sanaladi.

2025 yil yakunlariga ko'ra, korxonada yuqori ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini qayd etdi. Reja bo'yicha 206,52 ming tonna (fizik holda) tovar mahsuloti ishlab chiqarish belgilangan bo'lsa, amalda bu ko'rsatkich 223,3 ming tonnani (101,25 ming tonna sof holda) tashkil etdi. Bu esa rejaning qiymat jihatidan 1 594,3 mlrd so'mga bajarilishini va o'sish sur'ati 114,3% ga yetganini ko'rsatadi. Ishlab chiqarish tarkibida asosiy ulushni ammos (208,87 ming tonna) va suprefos (14,42 ming tonna) egalladi.



Sotuv ko'rsatkichlari ham ijobiy dinamikani namoyon etdi. Rejadagi 1 516,1 mlrd so'm o'rniga amalda 1 627,8 mlrd so'mlik mahsulot realizatsiya qilindi. Bunda asosiy e'tibor ichki bozorga qaratildi: ammos savdosi 1 556,3 mlrd so'mni, suprefos esa 52,1 mlrd so'mni tashkil etdi. Eksport yo'nalishida ham muayyan natijalarga erishildi. Jami 2 630 tonna mineral o'g'itlar 1,429 mln AQSH dollari qiymatida xorijiy bozorlarga yetkazib berildi. Mahsulotlar Afg'oniston, Tojikiston va Qozog'istonga eksport qilindi.



2026-yilning birinchi choragida ham korxonada barqaror o'sish sur'atini saqlab qolmoqda. Ushbu davrda 42,45 ming tonna ammofos ishlab chiqarilib, mahsulot qiymati 303,18 mlrd so'mni tashkil etdi. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,1% o'sishni anglatadi. Korxonada mehnat muhofazasi va ijtimoiy himoya masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Jamoatchilik nazorati kuchaytirilib, soha faollari soni 45 nafardan oshdi. Gender tenglikni ta'minlash maqsadida maxsus komissiya faoliyati yo'lga qo'yildi.

Shu bilan birga korxonada xodimlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash masalasiga ham usuvorlik berilmoqda. Kasaba uyushmasi mablag'lari hisobidan 44 nafar xodimning salomatligini tiklashiga ko'maklashildi, 24 nafar ishchining jarrohlik amaliyoti uchun moddiy yordam ajratildi. Shuningdek, kam ta'minlangan oilalar va mehnat faxriylariga ham doimiy e'tibor qaratilib, 19 nafar xodim qo'llab-quvvatlandi.



Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi yo'nalishida ham salmoqli natijalar qayd etildi. 2025-yil davomida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 87 919 tup daraxt va buta ko'chatlari, shuningdek, 12 000 dona gul ekilib, hudud ko'kalamzorlashtirildi. Mutaxassislarning malakasini oshirishga ham alohida e'tibor qaratilib, mas'ul xodimlar zamonaviy ekologik standartlar bo'yicha tayyorgarlikdan o'tdilar.



2026-yilning yanvar-mart oylari davomida “Ammofos-Maxam” aksiyadorlik jamiyatida atrof-muhit muhofazasi va ekologik barqarorlikni ta’minlash borasida samarali ishlar olib borildi. Mazkur davr mobaynida jami 0,193 mlrd so‘m mablag‘ yo‘naltirilib, 4 ta muhim ekologik tadbir hayotga tatbiq etildi.



2026-yilning yanvar-mart oylarida atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha 4 ta muhim tadbir amalga oshirilib, bu ishlarga 0,193 mlrd so'm mablag' yo'naltirildi. Natijada atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalar miqdori 0,35 tonnaga kamaytirildi. Shuningdek, 2 032,32 tonna ishlab chiqarish chiqindilari belgilangan tartibda utilizatsiya qilindi.



Matbuot anjumani yakunida jurnalistlarni qiziqtirgan barcha savollarga mutaxassislar tomonidan batafsil javoblar berildi.





source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/ammofos-maxam-ajda-amalga-oshirilgan-loyihalar-va-istiqbolda>